

## BUXORO YAHUDIYLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14163630>

**Muzaffarova Dildora**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi*

### **Annotasiya**

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan va hozirda ham O‘zbekiston aholisining bir qismiga aylangan Buxoro yahudiylari tarixi bilan tanishamiz.

### **Kalit so‘zlar**

yahudiylar, ashkenayiz, sinagoga, Boris Yusupov, Zoya Yusupova, Erib,gettalar, porakarda, sirkaniz, xezumxona (yoqilxona), angishtxona (ko'mirxona), govxona (og'il, molxona) va aspxona (otxona).

Yahudiylilik dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Yahudiylilik miloddan avvalgi II ming yillikning oxirida Falastin hududida vujudga kelgan yakkaxudolik g‘oyasini targ‘ib qilgan dindir [1]. Ushbu din vakillari ko‘p asrlar davomida doimiy muqim joyga ega bo‘la olmaganlar. Butun dunyoda tarqoq holda yashab, doimiy quvg‘inda yurgan yahudiy xalqi uchun Markaziy Osiyo hududi ham bir muddat boshpana vazifasini o‘tadi.

Markaziy Osiyodagi yahudiylar tarixi asrlarga borib taqaladi va mintaqaning Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Mo‘g‘uliston, O‘zbekiston va Tojikiston kabi mamlakatlarida yahudiy jamoalari istiqomat qilib kelishadi. O‘zbekiston yahudiylarining tarixi - bu ikki bir-biridan ancha mustaqil hisoblangan ikki aholi jamoalarining tarixidir. Ulardan biri nisbatan diniy va an‘anaviy dunyoqarashga ega Buxoro yahudiylari bo‘lsa, ikkinchisi esa kelib chiqishi Yevropa bilan bog‘liq bo‘lgan Ashkenazi yahudiy jamoalaridir.

Buxoro yahudiylari Markaziy Osiyodagi eng qadimgi yahudiy jamoalaridan bo‘lgan. Ba‘zi qadimiy manbalarga ko‘ra, Yahudiylar Podsho Dovud davrida, ya‘ni miloddan avvalgi X asrdayoq savdo-sotiq maqsadlarida Markaziy Osiyoga sayohatlarini boshlashgan[2]. Fors podshosi Buyuk Kir miloddan avvalgi 539-yilda Bobilni zabt etganidan so‘ng, o‘zi ozod qilgan yahudiylarni o‘z saltanatining istalgan yeriga joylashishi uchun ruxsat beradi. Bu saltanat o‘z tarkibiga O‘rta Osiyoning ham katta qismini olardi. Amir Temur va temuriylar davrida

Movarounahr mintaqasiga Erondan ko'pgina yahudiy jamoalari ko'chirib keltirilgan, ularning bir qismi Buxoroda yashagan. Temuriylar davrida O'rta Osiyodagi xristian jamoalari inqirozga uchragan bo'lsalarda, lekin yahudiy jamoalari saqlanib qolgan va o'zlarining diniy markazlaridan ajralib va uzoqlashib qolganliklariga qaramay, ular mintaqada o'z mavqelarini uzoq vaqt egallab turganlar.

Buxorolik yahudiylar boshqa yahudiylar bilan bir din vakillari bo'lsalar ham, kelib chiqishi umumiy bo'lsa ham, turli mintaq va madaniyatlarda asrlar davomida yashaganliklari uchun ular va boshqa yahudiylar o'rtasida madaniy farqlar kelib chiqqan. Ular uchun buxorolik yahudiy bo'lish "pok" va "sof yahudiy" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan buxorolik yahudiylar Sharqiy Yevropa, jumladan, Markaziy Osiyodan sovet yerlariga kelib qo'nim topgan ashkenaziy yahudiylarni o'z milliyligini yashirishda, diniy qoidalarga rioya qilmaslikda ayblab, ularga nisbatan "rus yahudiylari" atamasini ishlatgan.

1 Yahudiylarning O'rta Osiyoda yashaganliklariga guvohlik beruvchi arxeologik topilmalar ilk bor. 1954-yili olimlar tomonidan Turkmanistonning Marv va Bayramali shaharlarida aniqlangan. Bular qadimgi sinagoga qoldiklari, yahudiy yozuvlari va nomalari bitilgan sopol buyumlardir. Topilmalar Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari hukmronlik qilgan miloddan avvalgi II - milodiy I asrlarga tegishli bo'lgan.

1165-yilda Sharqqa sayohat qilgan Veniamin de Tudelning xabar berishicha, Sharqqa tomon qancha uzoqroq kirib borilsa, yahudiylar soni shuncha ko'payib borgan. O'sha davrda Quddus shahrida hammasi bo'lib 4 ming yahudiy yashagan bo'lsa, Basrada ularning soni 2 ming, Damashqda 3 ming, Isfahonda 15 ming, Samarqandda esa 30 ming kishini tashkil qilgan.[3]

Biroq bu sayyoh Sharqda Bag'dodgacha safar qilib, mahalliy yahudiylarning afsonaviy ma'lumotlariga asoslangan. Arab tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Sharqda yahudiylar tomonidan "Yahudiya" deb ataladigan shaharlar qurilgan. Shunday shaharlardan biri Marv shahri yaqinida bo'lgan.

2 X-XIII asrlar Buxoro yahudiylari uchun ma'naviy-ruhiy jihatdan o'sish davri bo'ldi. Ular Iroq yahudiy markazidan uzoqda, O'rta Osiyo hududlarida yahudiylikka oid qarashlarini rivojlantirdilar va Tavrot qonunlariga moslashtirdilar. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda karaimlar deb ataladigan yahudiy sektasi paydo bo'ladi. Bu sekta tarafdorlari faqat Tavrotni tan olar, Talmudni esa inkor qilar edilar. X asr O'rta Osiyo karaimlarining ko'zga ko'ringan rahnamalaridan biri g'aznalik Menexem Talmud tarafdorlariga qarshi o'z fikrlarini isbotlash uchun Iskandariyaga safar qilgan. Karaimlar sektasi namoyandalardan

yana biri Xivi al-Balxiy ko'plab asarlar yozib, ularda Talmudni tanqid qilgan va uning ishonchliligiga shubha bilan qaragan.

3 Bu atama tanlanganligi juda muhimdir. Chunki "rus yahudiylari" atamasida ularning rus tilida "sof" va "haqiqiy" yahudiy emasligi ma'nosi yashirin bo'lib, ularning aralashib ketgan ekanligini ta'kidlash maqsad qilingan. Buning sababi shundaki, ular yahudiy bo'lmaganlarga turmushga chiqadilar, pasportlarida o'zlarining shaxsini yashiradilar, yahudiylarning urf-odatlarini va an'alariga e'tibor bermaydilar.

4 Ammo buxorolik yahudiylar hamisha o'zlarining yahudiylik an'alarini himoya qilishlarini va yahudiylikni saqlab qolishlarini da'vo qilib kelishgan. Bu g'oyadan kelib chiqqan holda, Ashkenazi yahudiylari bilan nikoh buxorolik yahudiylar uchun umuman yahudiy bo'lmaganlar bilan nikoh sifatida qabul qilingan va ular bilan nikoh yahudiy bo'lmaganlar bilan nikohdan kamroq ekanligi aniqlangan. Bu tushuncha, ular bilan bo'lgan nikohlarda aks etganidek, Ashkenazim uchun qabristonlarda alohida joylarni tayyorlashga sabab bo'ldi.

5 Shu bois Buxoro yahudiylari hamisha mintaqaga keyin kelgan ashkenaziy yahudiylardan o'zlarini alohida tutib, ularga aralashmaslikka harakat qilganlar.

Buxoro yahudiylikining qaror topishi borasida ham turlicha fikrlar mavjud. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Falastinda "Buxoro" ko'p madaniyatli yahudiy dunyosida o'ziga xos etnik birlik sifatida shakllangan. Sayohat, ziyorat qilish, tijorat faoliyati, pul almashtirish, ayg'oqchilik ishi va kitoblar muomalasi natijasida buxorolik yahudiylar atamasi O'rta Osiyodagi diasporadan iborat bo'lgan. 1920-yillarda mintaqada Sovet hokimiyati o'rnatilgach, savdo va sayohatga qo'yilgan qattiq cheklovlar u yerdagi yahudiylarning boshqa yahudiy dunyosi bilan aloqa qilishiga to'sqinlik qildi. Garchi ular vaqt o'tishi bilan o'zlarini buxorolik yahudiylar deb atashda davom etgan bo'lsalar ham, bu tavsiflovchi nom ular orasida yahudiylikning ma'lum bir turiga nisbatan "haqiqiy yahudiy" degan ma'noga ega bo'ldi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin boshqa yahudiy dunyosi bilan yana yaqin aloqada bo'lgan buxorolik yahudiylar "Buxoro yahudiyligi" haqidagi tushunchalarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar. O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi eng katta yahudiylar jamoasi Buxoro amirligida hisoblangan.

1926–1970-yillar oralig'ida O'zbekiston (O'zbek SSR) yahudiy aholisi salkam uch karra ko'paydi, 1970–1989-yillar davomida sekinlik bilan qisqara bordi va 1989-yildan keyin, Kommunistik mafkurasi va Sovet Ittifoqining tanazzuli bilan bu jarayon jadallashdi. 1989–2002-yillar davomida O'zbekiston yahudiy aholisining to'qson foizdan ortig'i mamlakatni tark etdi va boshqa mamlakatlarga, asosan

Isroilga borib oʻrnashdi.[4]. Oʻtgan asrning 90-yillariga kelib bu jarayon ommaviy tus oldi - qadim yahudiy mahallalari boʻshab qoldi.

Rafael Nektalov Ozodlik bilan suhbatda yahudiylarni kolibri qushlariga mengzaydi. "Ular qaerda yaxshi hayot boʻlsa oʻsha yerda yashashadi" deydi Nektalov.

Buxoro yahudiylari oʻzlari bilan birga tor va ruboblarini oshpazlik va tujjorlik mahoratlarini Isroil va Amerikaga olib ketishdi. Birgina Nyu -Yorkning oʻzida Buxoro yahudiylarining ikki teatri ishlab turibdi.

1989-yilda Oʻzbekistonda 94,900 yahudiy istiqomat qilgan[5]. Buxoro yahudiylarining Isroil va AQSHga koʻchib ketishlari tufayli, bugungi kundagi Oʻzbekiston yahudiylarining asosiy qismi Ashkenazi yahudiylaridir[4].

Yoqubovning aytishicha Buxoro yahudiylaridan birortasi AQSh va Germaniyada ishsiz qolmadi:

- Fizikada bordan yoʻq boʻlmaydi degan gap bor. Oʻzbekistondan ketgan oshpazlar-u qandolatfurush, etikdoʻz-u sartaroshlar bugun oʻz kasblarini Amerika va Yevropada davom ettirishmoqda. Grin karta yutgan oʻzbeklar ham ular ochgan etikdoʻzlik ustaxonalari va kabobxonalariga dastyorlikka ishga kirishmoqda. Doʻstlik davom etmoqda.

Oʻzbekiston gulzor, har shahri lolazor deya taʼrif bergan edi ularning biri.

1990 yilda Buxoroning Labihovuzida oddiy oshpaz boʻlib ishlagan Boris Yusupov xotirasida Oʻzbekiston doimiy bayramdan iborat katta bir gulzor kabi qolgan:

- Otam Sharof Rashidovning xos oshpazi boʻlgan. Qora chaykada egniga oq pidjak va boshiga oq shlyapa kiygan Sharof Rashidovning tabassumli siymosi esimda qolgan. Hamma yoq gulzor edi. Odamlarda bir-biriga mehr bor edi deya eslashdi Boris Yusupov va uning xotini Zoya Yusupova.[6]

Bugungi kunda Oʻzbekistonda 12 ta sinagoga mavjud boʻlib, ularning 2 tasi Samarqandda joylashgan[7]. Yahudiylarning ibodatgohi - Dovud alayhissalomning olti qirali yulduzi Buxoro zardoʻzisida toʻqilgan bu kaniso ichida Isroil bayrogʻi ham osigʻlik. Bu ibodatgoh Oʻzbekistonda rasman roʻyxatga olingan sakkizta sinagogadan biri.

Yahudiylar qadimdan boshqalarga koʻp qoʻshilmay, oʻzlariga vakka hol yashashga oʻrganib qolgan. Erub deb ataladigan toʻsiqning mavjud boʻlganligining oʻzi, ularni boshqa xalqlardan ajralgan holda yashashga intilganligining yorqin dalili hisoblanadi. Ularning diniy taʼlimotida uqtirilishicha, yahudiy boshqa dindagi odamlarga asyo yaqinlashmasligi kerak. Erub yahudiylar bilan musulmonlar yashayotgan chegarada ikki qoziqqa tortilgan simdir. Baʼzi olimlar

(M. Zand)ning fikricha, yahudiylar Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VI asrda paydo bo'lgan. "Yahudiylar ensiklopediyasi"da Buxoro hududi Bibliyadagi Xabar bilan isroilliklarning o'n pushti surgun qilingan joylardan biri sifatida tenglashtirilgan (mil avv. 722-yil). Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, yahudiylar Markaziy Osiyo (Marv, Samarqand)ga II-V va VIII asrda kirib kelgan. Yozma manbalarga ko'ra, yahudiylar miloddan avvalgi 1-milodiy I asrlarda Marvga, VI-VIII asrlarda esa Xorazmda paydo bo'lgan. Akademik V. V. Bartoldning yozishicha, X asrda Movarounnahrda yahudiylar xristianlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilgan. Tudellik sayyoh Venlamin (XII asr)ning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand shahrida 30 ming nafar yahudiylar yashagan. Yahudiylarning Buxoroda bo'lishlari to'g'risida ilk ma'lumotlar XIII asrga to'g'ri keladi. Buxoro yahudiylarining oilaviy afsonalariga ko'ra, XIV asr oxiri XV asr boshlarida yahudiy to'quvchilar Amir Temur tomonidan Sabzavor, Sheroz va Bag'doddan Movarounnahr olib kelingan va ular keyinchalik mahalliy yahudiy jamoalarig aralashib ketgan. XVI asrda Buxoro yahudiylarning bosh markaziga aylangan, aynan ushbu asrda shaharda yahudiylar mahallasi "Mahallai ko'hna" tashkil topgan. Ular asosan, yahudiy diniga e'tiqod qiladi.

Yahudiylar alohida mahalla-mahalla bo'lib yashagan. Ularning uy-joylari eski shahar qismida joylashgan. Aksariyat shaharlarda yahudiylarning mahalla yoki guzarlari bir nechta bo'lakka bo'lingan. Qadimdan yashab kelayotgan yahudiylarning mahallalari "gettalar" deb yuritilgan. Markaziy Osiyo yahudiylarining uy-joylari o'zbek va tojiklarnikidan deyarli farq qilmagan, lekin ularda hovlining ichkari- tashqarisi bo'lmagan. Xonalari odatda, derazasiz quriladi. Tuynuk panjara (yahudiylarda tobadon) yoki xona eshiklaridan tushib turadigan yorug'da o'tiriladi. Har bir xona oldidan seni (dahliz) quriladi va polga bo'yra to'shaladi. Bo'yra ustidan sholcha, namat va gilam solinadi. Qishning sovuq kunlarida asosan, sandal yonida o'tiriladi va o'sha yerda tamaddi qilinadi. Xo'jalik xonalari oshxona, xezumxona (yoqilxona), angishtxona (ko'mirxona), govxona (og'il, molxona) va aspxona (otxona)dan iborat bo'lgan.

Yahudiylar ovqatlanish masalasida diniy urf-odatlariga katta e'tibor beradi. Yahudiylarning ovqatlari ikki turga bo'linadi: sutli va go'shtli taomlar. Cho'chqa, ot va tuya go'shti yeyilmaydi. Ular orasida eng tarqalganlari sifatida palov, oshi porakarda, sirkaniz, oshimoxi va baxshni alohida ko'rsatish mumkin. Bular yahudiylarning milliy taomlari hisoblanadi. Ular obinon, quymoq, chalgan va arqonpak pishiradi, shinni, va kama iste'mol qiladi. Bog'dorchilik va rezavorchilik ham keng tarqalgan.

Barcha shaharlarda yahudiylar gettolarida g'uj bo'lib yashagan va mahallalarda sinagogalar joylashgan edi. XX asrning 30-yillari boshlarida stalincha qatag'on davrida 100 ga yaqin buxoro yahudiylari hibsga olingan, sinagogalar, yahudiy maktablari, teatr, muzey va gazetalari yopilgan. Ulardan adabiy esdaliklarning mashhur mualliflaridan biri Solomon ben Samuel bo'lgan. U 1338-yilda Urganchda yahudiy tili lug'atini tuzgan bo'lsa, Mois ben Dovud esa forsiyda poemalar bitgan. XVII asr oxiri XVIII asrning birinchi yarmida shoir Yusuf Yagudi (Mollax Iosif ben Isaak)ning "Етти ака- ука" asari Buxoroda mashhur bo'lgan. Buxoro yahudiylarining asosiy mashg'ulotlari savdo, musiqashunoslik, san'at, hunarmandchilik bo'lib, keyinchalik maishiy xizmat, pedagoglik, muhandis va shifokorlik kasblarini egallagan. Ular orasidan fan va madaniyatning yirik arboblari yetishib chiqqan; fan doktorlari-prof. Yu. I. Is'hoqov, I. A. Kalantarov, B. I. Pinxasov, N. M. Mallaev, kompozitorlar M. Leviev, S. Yudakov, rassomlar - Yu. M. yelizarov, O'zbekiston xalq artistlari L. Boboxonov, B. Davidova, I. Oqilov, M. Yoqubova, M. Shamaeva va Izro Malakov shular jumlasidandir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Respublika Konstitutsiyasida barcha millat va elat vakillarining tili, urf-odati hamda an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish kafolatlandi. Shundan kelib chiqib, Buxoroda ikkita sinagoga, yahudiy tilida o'qitiladigan maktab va bolalar bog'chasi faoliyat ko'rsatmoqda. Samarqandda esa 1998- yildan boshlab "Shofar" gazetasi nashr qilinadi va turli diniy marosimlar o'tkaziladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki O'zbekistonda yashovchi har bir millat vakili alohida e'tibor, hurmat va o'ringa egadir. Shu qatorda yillar mobaynida sarson va sargardon bo'lgan yahudiy xalqi ham bag'ri keng o'zbek xalqi tomonidan yuksak e'tirofga sazovor bo'ldilar. Hozirgi jadal rivojlanish, davlatlar o'rtasida ijtimoiy-geosiyosiy nufuz uchun bo'layotgan tortishuv jarayonida ham, hamma Isroil davlatiga qarshi chiqqanda ham, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi Buxoro yahudiylari ajratib qo'yilgani yo'q. Ular barcha fuqarolar singari davlatimiz oldida birdek sanab kelinmoqda.

Ushbu maqola „MARKAZIY OSIYO XALQLARI ETNOLOGIYASIA“. X. DONIYOROV, O.B. BO'RIYEV, A.A. ASHIROV. Toshkent "NIF MSH" 2020. kitobi asosida yoritildi

#### MANBALAR:

[1] Buxoro yahudiylari Axmedov Narzullo. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti maqolasidan

[2]Abazov, Rafis (2007). Culture and Customs of the Central Asian Republics. Greenwood Publishing Group. p. 75. ISBN 9780313336560. Retrieved 30 Ju

[3]Шаламаев А., Толмас Х. Страницы литературы бухарских евреев, т.1. Тель-Авив, 1998. С. 28

[4]World Jewish Population 2007 (Wayback Machine saytida 2009-03-26 sanasida arxivlangan), American Jewish Yearbook, vol. 107 (2007), p. 592.

[5]World Jewish Population 2001 (Wayback Machine saytida 2013-12-06 sanasida arxivlangan), American Jewish Yearbook, vol. 101 (2001), p. 561.

[6][https://www.ozodlik.org/cdn.ampproject.org/v/s/www.ozodlik.org/amp/30169445.html?amp\\_gsa=1&amp\\_js\\_v=a9&usqp=mq331AQIUAKwASCAAgM%3D#amp\\_ct=1731442055179&amp\\_tf=Manba%3A%20%251%24s&aoh=17314420443997&referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com&ampshare=https%3A%2F%2Fwww.ozodlik.org%2Fa%2F30169445.html](https://www.ozodlik.org/cdn.ampproject.org/v/s/www.ozodlik.org/amp/30169445.html?amp_gsa=1&amp_js_v=a9&usqp=mq331AQIUAKwASCAAgM%3D#amp_ct=1731442055179&amp_tf=Manba%3A%20%251%24s&aoh=17314420443997&referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com&ampshare=https%3A%2F%2Fwww.ozodlik.org%2Fa%2F30169445.html)

[7]Uzbekistan Virtual Jewish History Tour.